



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA IJTIMOIIY
KONSENSUSGA ERISHISHNING NAZARIY-METODOLOGIK
ASOSLARI**

Q. Sulaymonov

Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya:

ushbu maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy konsensusga erishishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar:xavfsizlik, jamoat xavfsizligi, konsensus, ijtimoiy konsensus, ijtimoiy shartnoma, ijtimoiy murosa.

Jahonda ijtimoiy barqarorlikka turli tahdid va tajovuzlarni ko'pyib borayotganli sabali jamoat xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy konsensusga erishishga qartilgan ijtimoiy mexanizmlarni rivojlantirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning dinamik tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatlar barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy shartnoma, kelishuv va ijtimoiy murosa siyosatini amalga oshirish zarurati ortib bormoqda. Jamoat xavfsizligini ta'minlash zarurati ijtimoiy ziddiyatlarga yangicha yondashish imkoniyatini yaratib berdi. SHu bois, ziddiyatlarning qamrovi va namoyon bo'lish shakllarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ham, jamoat xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy konsensusga erishish muammolarini o'rganishga qaratilgan siyosiy tadqiqotlarga ehtiyoj yuzaga kelmoqda.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xaqaro markazlari tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy konsensusga erishish masalalariga bag'ishlangan muhim nazariy va fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilanishlar asosida Jamoat xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy munosabatlar sohasidagi ziddiyatlarni o'rganishning muhim tomonlaridan biri – jamiyat rivojlanishida dialektik ziddiyatlar taraqqiyotini boshqarish masalasi dolzarb ekanligi xulosa qilinmoqda. SHu bois jamoat xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy konsensusga erishish masalalarini tizimli tadqiq etish zarurati yuzaga chiqmoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham "ijtimoiy tahdidlarni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, yot g'oyalar ta'sirini oldini olish va ularning ta'siriga tushib qolganlar bilan tizimli ishlash orqali ularning muammolarini bartaraf etish"[1] ustuvor maqsad va asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu orqali jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirilishi, bu yakdillik va hamma narsani bir ovozdan tasdiqlash emas, balki qotib qolgan tafakkur va bir tomonlamalik xususiyatlaridan xalos bo'lib, fikrlar xilma-xilligi va rang-barangligi asosida davlat va xalq birdamligini shakllantirish, aholining davlat va jamiyatga ishonchini mustahkamlashga erishish maqsad qilinmoqda. Shuning uchun ham jamoat xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy konsensusga erishishning dialektik tahlili yangicha yondashuvlar asosida o'rganishvazifalari dolzarblik kasb etmoqda.

Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati, tahdidlarni namoyon bo'lishi va ularni keltirib chiqaruvchi sabalar, ijtimoiy oqibatlari tahlil qilamiz. Buning uchun avvalo,



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

xavfsizlik, jamoat xavfsizligi tushunchalarining mazmun mohiyati, ijtimoiy mazmunini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq ish bo‘ladi.

“CHembers lug‘ati”da “xavfsizlik” tushunchasini “holat, xavfsizlikka keltiruvchi vositalar yoki sezgi” deb talqin qilingan. Mazkur tushuncha “besaranjomlilik, tashvishlilik”, “ishonch”, “barqarorlik”ning yo‘qolishi bilan bog‘lab tushuntirilgan[2].

Zamonaviy adabiyotlarda “xavfsizlik” tushunchasi ob‘ektning o‘z funksiyalarini cheklashi va o‘zining ichki qonunlari asosida rivojlanadigan shart-sharoitlar va omillar tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi[3]. SHuningdek, xavfsizlik individ yoki jamiyatga xavf-xatar tug‘diruvchi shart-sharoit va omillardan himoyalalanish tarzida ham tavsif etiladi[4].

SHuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, “xavfsizlik” tushunchasiga berilgan ko‘plab ta’riflar olimlar va amaliyotchilar tomonidan tanqidga uchramoqda. Bizningcha, ko‘plab ta’riflarda aniqlik etishmasligining asosiy sababi tushunchaga ta’rif berishda xavfsizlikning dialektik ziddi hisoblangan xavfning hisobga olinmasligi bilan bog‘liq. Aynan xavf-xatarining yuzaga kelish sabablarini o‘rganish “xavfsizlik” tushunchasiga aniqroq ta’rif berish imkonini beradi. G.A.Atamanov ta’kidlab o‘tganidek, xavfsizlik uning hosilasi sifatida xavf-xatar bilan aloqadorlikda mazmun kasb etadi[5]. Muallifning fikricha, “xavfsizlik” ichki va tashqi ta’sirlarning mavjudligi sharoitida tizimning hayotiy mavjudlik mexanizmining buzilishiga doir ob‘ekt holatini ifoda etadi. Uning har qanday tahdidni xavf-xatar sifatida qabul qilishi o‘rinli bo‘lmaydi, xavfsizlik xavf-xatarni engib o‘tish natijasida yuzaga keladi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

Rus olimi V.I. Dalning fikricha: “Xavfsizlik” atamasi – murakkab tushuncha bo‘lib, uning ma’nosi intuitiv darajada xuddi tushunarlidek tuyuladi. “Xavfsizlik” tushunchasi insonlarning odatiy tasavvuriga ko‘ra sub’ektiv ma’noga ega, ya’ni xavfsizlik – sub’ektning unga zarar etkazuvchi salbiy faktorlardan himoyalangan holatidir. Boshqacha aytganimizda, “xavfsizlik” , “xavfning yo‘qligi” deb ta’riflanishi mumkin[6].

SHunday qilib, “xavfsizlik” tushunchasini kimgadir, nimagadir xavf-xatarning yo‘qligi deb talqin qilish mumkin.

Bugungi kunda xavfsizlikning turli ta’riflari mavjud bo‘lib, ularning mualliflari turli mezonlarga asoslanadi. Ba’zan “xavfsizlik – holat, rivojlanishning an’analari va hayot faoliyatining shartlari...”[7] deb tasavvur qilishadi. Bundan tashqari, agar xavfsizlik innovatsiyalar progressini chegaralaydigan bo‘lsa, u holda u turg‘unlik faktoriga, konservatizmga, regressga olib kelishi mumkin. Xavfsizlik tizimi nafaqat son yoki sifat jihatdan o‘zgarishlarga to‘sqinlik qilishi, balki jamiyat va shaxs uchun zarar keltirmagan holda eski shakllarni oshib o‘tishga yordam qilishi lozim. Ko‘pchilik hollarda “xavfsizlik” tushunchasini “himoya”, “himoyalangan”, “himoya qilish” atamalari orqali ochib berish uning ma’nosini toraytiradi deb hisoblashadi. Himoya qilish – nimanidir yopish, nimagadir to‘siq qo‘yish deb talqin qilinishi; u buyum, predmet, hodisa, qo‘riqlash, kimgadir, nimagadir to‘siq bo‘luvchi va nihoyat oddiy qilib aytganimizda to‘g‘ri va ko‘chma ma’noda qalqon deb atalishi mumkin. Zamonaviy ensiklopedik lug‘atlarda bu so‘z shu tariqa yoki shu tarzda talqin qilinadi. Lekin, biz xavfsizlikning muhim xossasi va funksiyasini bo‘lgan – xavf va tahdidni pasaytirish, bartaraf etish, ogohlantirishni adabiyotlarda atroflicha ochib berilgan talqinini uchratmadik. Xususan, “himoya qilish”



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

soʻzining maʼnosi xavfsizlikning muhim funksiyasini aks ettiradi, lekin u tugallangan maʼnoni bildirmaydi.

Koʻpchilik adabiyotlarda “xavfsizlik”ka “zarar etkazishi mumkin boʻlgan xavf-xatarning yoʻqligi” deb taʼrif berilgan. Asos sifatida olinishi mumkin boʻlgan bu taʼriflar, xavfsizlikni taʼminlashning ikkita tamoyilini oʻzida aks ettiradi.

Birinchi taʼrifdan kelib chiqadigan tamoyil – xavfsizlikni taʼminlash boʻlib, u sifat jihatidan xavfsizlikni taʼminlash mezoniga asoslanadi. Ushbu mezon ikkita qiymatni qabul qilishi mumkin: 1 (xavfsizlik taʼminlanadi) yoki 0 (xavfsizlik taʼminlanmaydi). Agar xavfsizlik holati baholanayotganda shaxs, jamiyat va davlat uchun muhim boʻlgan manfaatlar himoyalangan degan xulosaga kelinsa, u holda xavfsizlikni taʼminlanish mezoni 1 ga teng deb hisoblanadi hamda xavfsizlik taʼminlanayapti degan qarorga kelinadi. SHu bilan birga “toʻliq” xavfsizlik taʼminlanmoqda deb faraz qilinsa, u holda hodisadan zarar etkazilish mumkin boʻlgan imkoniyat yoʻqqa chiqariladi. Agar xavfsizlik holati baholanayotganda shaxs, jamiyat va davlat uchun muhim boʻlgan manfaatlar himoyalangan degan xulosaga kelinsa, u holda xavfsizlikni taʼminlanish mezoni 0 ga teng deb hisoblanadi hamda xavfsizlik taʼminlanmayapti degan qarorga kelinadi.

Ikkinchi taʼrifdan kelib chiquvchi xavfsizlikni taʼminlash tamoyili, “toʻliq” xavfsizlik taʼminlanishi mumkin emas degan farazga asoslanib, zarar etishi bilan bogʻliq boʻlgan holat har doim mavjud taxminiga tayanadi. SHunday qilib, dunyoning turli madaniyatlarida xavfsizlik va tahdid haqida umuman olganda bir xil tasavvurlar shakllangan, unda shaxsning hozirgi va kelajakdagi holati bilan bogʻliq sezgi va qaygʻurishlariga urgʻu berilgan.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

YA'ni, inson uchun xavfsizlik - birinchi navbatda turli ko'rinishdagi xavfli harakatlardan himoyalanganligini bilishi va sezishidir.

Tahlillar natijasida quyidagi ta'rifni keltiramiz: shaxs xavfsizligini ta'minlash yoki tahdidni bartaraf etish – jamoatchilik ongining holati sifatida qaralib, unda yaxlit jamiyat va alohida shaxs hayotning mavjud sifat darajalari ishonchli deb qabul qilinadi. Chunki, u fuqarolarga hozirgi tabiiy hamda ijtimoiy talablarini qondirishi uchun real imkoniyatlar va kelajakka asosli ishonchni beradi. Xavflarni yuzaga kelishi haqida quyidagicha fikr ham bildirilgan: Xavflarning yuzaga kelishi muayyan sharoitlarga ko'ra turli-tuman bo'lishi mumkin. SHu munosabat bilan ba'zi mualliflar uni amalga oshirish mantiqan murakkab masala ekanligiga qaramay, tahdid tushunchasidan ma'lum xavfni muayyanlashtirish va uning yuzaga kelish ehtimolini aks ettiruvchi tushuncha sifatida foydalanadilar[8]. "Jamoat xavfsizligi" tushunchasini tahlil qilishga to'xtaladigan bo'lsak, shuni takidlash joizki, bugungi kunda ilmiy ishlarda ushbu huquqiy toifani belgilash bo'yicha ko'plab qarashlar shakllangan. "Jamoat xavfsizligi" atamasi ilmiy bilimlarning turli sohalarida va ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatida keng qo'llaniladi. Biroq, uning keng qo'llanilishiga aramay, afsuski, bugungi kunda «jamoat xavfsizligi» ta'rifiga yagona yondashuv mavjud emas. SHu munosabat bilan "jamoat xavfsizligi" tushunchasining mazmunini aniqlash bo'yicha ilmiy adabiyotlar, amaldagi qonun hujjatlarini har tomonlama tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон // <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Jon Lackie. Chambers Dictionary of science and technology. – Edinburgh: Chambers, 2007. – Pp 268.
3. Заплатинський В. М. Терминология науки о безопасности. Zbornik prispevkov zmedzinarodnej vedeckej konferencie «Bezpečnostná veda a bezpečnostné vzdelanie». –Liptovsky Mikulas: AOS v Liptovskom Mikulasi, 2006. – С.78-80.
4. Дзлиев М.И., Романович А.Л., Урсул А.Д. Проблемы безопасности: теоретико-методологические аспекты. – Москва: МГУК, 2001. – С.9.
5. Атаманов Г. А. Информационная безопасность: сущность и содержание // Бизнес и безопасность в России. – 2007. – № 47. – С. 106.
6. Даль В.И. Толковый словарь великорусского языка. –М.: 2002. –С.67
7. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: Теория и технология психологической защиты. Дис. док.пси. наук. - М.: 2000, -С. 13.
8. Шариков А.В. Если сомневаешься, исключи: Дети и насилие на экране. // Культура: сб. науч. тр. -М.: 2000, № 46, С.15.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

9. Яхшиликов Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси.

– Тошкент: Фан, 2017. – Б. 315.

10. Маънавият: асосий тушунчалар ва изоҳли луғат. -Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – Б. 546-547.